

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Samandar Niyazimbetov, DSc (History), Professor

Deputy Editor:

Mukhriddin Sodirjonov, PhD (Sociology), Associate Professor
Namangan State University

Editorial Board:

Bozorkul Karimov, PhD (Philosophy), Associate Professor
Bukhara State Technical University

Dilfuza Rasulova, DSc (Economics), Professor
Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Dilshod Sattarov, PhD (Law), Associate Professor
Customs Institute of the State Customs Committee

Djamaliddin Musayev, PhD (Law), Associate Professor
Customs Institute of the State Customs Committee

Farkhod Abdurakhmonov, DSc (Economics), Associate Professor
Tashkent State University of Economics

Ibrohim Ikramov, PhD (Philosophy), Associate Professor
Namangan State University

Jasur Gaipov, PhD (Economics)
Tashkent State University of Economics

Kamaldin Yunusov, DSc (Political Science), Professor
Andijan State University

Kamoliddin Sirojiddinov, PhD (Economics), Associate Professor
Namangan State University

Khusan Abuev, PhD (History), Associate Professor
Navoi State University


Komiljon Tajibaev, PhD (Economics)
Namangan State University

Marapat Akayeva, PhD (Law), Associate Professor
Namangan State University

Nurbek Toshkanov, PhD (Law)
Tashkent State University of Law

Shavkat Turayev, PhD (Philosophy), Associate Professor
National University of Uzbekistan

Ural Khaydarov, DSc (Economics), Associate Professor
Tashkent State University of Economics



ISSUES OF ENHANCING THE EFFICIENCY OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PROJECTS IN UZBEKISTAN

Gulzada Aytbaeva¹.

¹ Doctoral Researcher (PhD Candidate), Karakalpak State University named after Berdaq.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19391628>

Key words: public-private partnership, infrastructure development, private investment, institutional environment, risk management, legal framework, economic efficiency, international experience.

ABSTRACT

The article analyzes the role of the public-private partnership (PPP) model in infrastructure development and examines issues related to enhancing its effectiveness. The primary objective of the study is to explore the theoretical and practical aspects of PPP mechanisms and to identify pathways for their improvement within the context of Uzbekistan. The research methodology is based on a comparative analysis, through which the experiences of the United Kingdom, France, and Russia are systematically compared with the practice in Uzbekistan. The findings indicate that PPP projects constitute an important instrument for infrastructure development, the attraction of private investment, and the efficient utilization of public resources. At the same time, the study reveals the need to further improve the legal framework, financial mechanisms, and risk management systems. In conclusion, strengthening the institutional environment, enhancing transparency, and adapting international best practices to national conditions are identified as key prerequisites for the effective development of PPPs.

O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma rivoji, xususiy investitsiyalar, institutsional muhit, risklarni boshqarish, huquqiy baza, iqtisodiy samaradorlik, xalqaro tajriba.

ANNOTATSIYA

Maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelining infratuzilmani rivojlantirishdagi o'rni va samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi DXSh mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish hamda O'zbekiston sharoitida ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya tajribalari O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, DXSh loyihalari infratuzilmani rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va davlat resurslaridan samarali foydalanishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, huquqiy baza, moliyaviy mexanizmlar va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish zarurati mavjud. Xulosa sifatida, DXShni samarali rivojlantirish uchun institutsional muhitni mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli jahon miqyosida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. DXSh davlat va xususiy sektor o'rtasidagi institutsional hamkorlik shakli bo'lib, iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashning samarali vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu hamkorlik doirasida davlat infratuzilma, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va energetika kabi ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishda xususiy sektorning moliyaviy resurslari, boshqaruv tajribasi hamda innovatsion salohiyatidan foydalanadi. DXSh loyihalari, odatda, uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, xususiy hamkorga investitsiyalarni ma'lum vaqt oralig'ida qaytarish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, xususiy sektor texnologiyalari va innovatsiyalaridan samarali foydalanish hamda davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida tavakkalchiliklarni oqilona taqsimlash orqali DXSh mexanizmlari infratuzilmani rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [1, B.352].

DXShning asosiy maqsadi davlat resurslaridan oqilona foydalanish va xususiy sektorning innovatsion salohiyatini maksimal darajada safarbar etishdan iborat. Mazkur mexanizm moliyaviy yuklamani kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, DXSh loyihalari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari so'nggi yillarda izchil rivojlanib, davlat infratuzilmasini modernizatsiya qilish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Xususan, 2024-yilda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mahalliy va xorijiy investorlar bilan umumiy qiymati 8,9 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan 129 ta DXSh loyihasi bo'yicha bitimlar imzolangan [2, B.152].

2024-yil 10-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan DXSh loyihalari soni 1 145 taga yetib, ularning umumiy qiymati 29,6 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Mazkur loyihalarning asosiy qismi energetika sohasiga to'g'ri kelib, ushbu yo'nalishga 27 milliard AQSh dollari yo'naltirilgan. Shuningdek, kommunal xizmatlar sohasiga 1,5 milliard AQSh dollari, ta'lim sohasiga 248,7 million AQSh dollari, transport sohasiga 94,2 million AQSh dollari, sog'liqni saqlash sohasiga 57,5 million AQSh dollari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga 23,9 million AQSh dollari, madaniyat sohasiga 22,8 million AQSh dollari hamda qurilish sohasiga 15,6 million AQSh dollari yo'naltirilgan.

1-Jadval

Loyihalarning sohalari bo'yicha taqsimoti

1.	Energetika	27,3 milliard dollar
2.	Kommunal xizmatlar	1,5 milliard dollar
3.	Ta'lim	248,7 million dollar
4.	Transport	94,2 million dollar
5.	Sog'liqni saqlash	57,5 million dollar
6.	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	23,9 million dollar
7.	Madaniyat	22,8 million dollar
8.	Qurilish	15,6 million dollar

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida DXSh loyihalarini amalga oshirish jarayonida bir qator tizimli muammolar va cheklovlar mavjud. Ulardan biri – huquqiy va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarurati hisoblanadi. Xususan, 2024-yil 30-oktabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Davlat-xususiy sheriklik sohasini takomillashtirish va kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilinib, DXSh loyihalarini amalga oshirish tartibini belgilovchi nizom tasdiqlandi. Mazkur hujjat loyihalarni baholash, tashabbus ko'rsatish, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish hamda ularni kelishish tartiblarini tizimli ravishda tartibga soladi.

DXSh loyihalarini moliyalashtirish jarayonida davlat budjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda DXSh loyihalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom qabul qilinib, loyihalar doirasida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish manbalari aniq belgilab berildi.

DXSh loyihalarining samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi institutsional hamkorlikni mustahkamlash zarur. Bu borada davlat organlari va xususiy sektor vakillari o'rtasida o'zaro ishonch muhitini shakllantirish hamda samarali muloqotni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida O'zbekiston Respublikasida DXSh loyihalarini yanada rivojlantirish uchun yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, ijtimoiy sohalarda DXSh mexanizmlarini kengaytirish, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish yo'nalishlarida tizimli ishlar olib borilishi zarur. DXSh ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish, aholi farovonligini oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga sezilarli hissa qo'shadi [3, B.112].

Shuningdek, DXSh modeli davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususi sektor ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar, odatda, bozor tamoyillariga asoslanib, raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni keng joriy etish va xarajatlarni optimallashtirishga yo'naltirilgan. Shu bois, rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh mexanizmidan samarali foydalanish infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davlat-xususi sheriklikning turli mamlakatlardagi muvaffaqiyatli amaliyotlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy metodlardan biri – taqqoslash usuli hisoblanadi. Xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasidagi DXSh loyihalari O'zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu mamlakatlardagi DXSh modeli, uning huquqiy asoslari hamda samaradorlik mezonlari O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari nuqtai nazaridan baholandi.

Tadqiqot DXShning nazariy asoslarini yoritish va turli yondashuvlarning samaradorligini baholashga yo'naltirilgan. Maqolada DXShning shakllanish jarayoni va uning davlat hamda xususi sektor o'rtasidagi hamkorlik shakli sifatidagi ilmiy asoslari tahlil etiladi.

Zamonaviy iqtisodiy tizimda DXSh nisbatan yangi institut sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi muayyan obyektiv omillar bilan belgilanadi. Ushbu modelning evolyutsion rivojlanish bosqichlarini o'rganish uning muvaffaqiyat omillarini aniqlash hamda davlat siyosatini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ko'plab mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, DXSh infratuzilmani rivojlantirishning samarali modeli sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shadi. DXSh nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki institutsional rivojlanish jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, infratuzilmani rivojlantirish sohasida davlat-xususi sheriklik davlat va xususi sektorning ustun jihatlarini integratsiyalash orqali qator afzalliklarni taqdim etadi. Bunday hamkorlik moliyalashtirishdagi cheklovlarni bartaraf etish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Infratuzilma loyihalarida DXShning muhim afzalliklaridan biri — loyiha ishtirokchilari o'rtasida xavf va xarajatlarni oqilona taqsimlash imkoniyatining mavjudligidir. Bu esa tijorat salohiyatiga ega loyihalarni amalga oshirishda ushbu mexanizmning ayniqsa samarali ekanligini ko'rsatadi [4, B.21].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda davlat-xususi sheriklik (DXSh) masalasi ilmiy jamoatchilik orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Zamonaviy DXSh shakllari so'nggi 30 yil davomida izchil rivojlanib kelayotgan bo'lsa-da, uning ayrim jihatlarini hanauz to'liq ilmiy jihatdan o'rganilmagan. Eng ko'p tadqiq etilgan yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- xavflarni taqsimlash va loyihalarni boshqarish;
- DXSh modellarining infratuzilmadagi o'rni;
- loyihalarni moliyalashtirish hamda ularning muvaffaqiyat omillari;
- konsessiyalar bilan bog'liq muammolar (narx belgilash, shartnoma muddati, muzokaralar jarayoni);
- davlat tomonidan tartibga solish va shartnomalarni boshqarish;
- DXSh samaradorligini baholash mezonlari (Value for Money – VfM);
- shartnoma tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar
- barqarorlik va innovatsiyalar.

Olimlarning DXShning transport, kommunal xizmatlar va ijtimoiy sohalarga (ayniqsa sog'liqni saqlash) ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlari keng tarqalgan. Bunga Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan tadqiqotlar dalil bo'la oladi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya g'aznachiligi, Buyuk Britaniya Milliy audit boshqarmasi, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Yevropa Ittifoqi (EI) hamda BMT Sanoat rivojlanish tashkiloti (UNIDO) tomonidan ham mazkur yo'nalishda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda [5, B.103].

Dunyo olimlari, xususan Kabashkin va Jessada Sresakoolchai qarashlarini qiyosiy tahlil qilish DXShning mohiyati va amaliy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Har ikki olim DXSh loyihalarining iqtisodiy rivojlanish va infratuzilmani takomillashtirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi hamda ushbu modelni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmi sifatida baholaydi. Shuningdek, ular xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish DXShning asosiy ustunliklaridan biri ekanligini qayd etadilar.

Kabashkin DXShni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi institutsional va tashkiliy hamkorlik shakli sifatida talqin qilib, uni Rossiya tajribasi asosida tahlil qiladi hamda strategik tarmoqlarni rivojlantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi [6, B.104].

Jessada Sresakoolchai esa DXShni transport infratuzilmasida, ayniqsa temir yo'l loyihalarida qo'llash masalalarini o'rganadi. U DXShni operatsion xavflarni xususiy sektor bilan taqsimlash imkonini beruvchi mexanizm sifatida baholab, uning xususiy sektor uchun iqtisodiy manfaatdorligini va moliyaviy risklarni kamaytirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Shunday qilib, har ikki olimning yondashuvlari o'zaro uyg'un bo'lsa-da, Kabashkin ko'proq DXShning makroiqtisodiy va strategik ahamiyatiga, Sresakoolchai esa uning amaliy va sektorlar kesimidagi qo'llanilishiga e'tibor qaratadi.

Varnavskiy V.G. DXShni moddiy va nomoddiy resurslarni integratsiyalashga asoslangan institutsional va tashkiliy mexanizm sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, DXShning asosiy maqsadi o'zaro manfaatli shartnomalar asosida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishdan iborat. Shuningdek, u DXSh loyihalarining davlat va munitsipal boshqaruv organlari tomonidan muvofiqlashtirilishi hamda ularning ijtimoiy yo'naltirilganligini alohida ta'kidlaydi.

Shishkina S.V. va Mirkina M.Ya. DXShni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi huquqiy jihatdan mustahkamlangan munosabatlar tizimi sifatida tahlil qilib, ushbu modelning iqtisodiy faoliyatning keng doiralarida qo'llanish imkoniyatini asoslab beradi. Ular DXShni institutsional jihatdan rivojlantirish zarurligini hamda tomonlar o'rtasida muvozanatli va adolatli shartnomaviy munosabatlarni shakllantirish muhimligini qayd etadi.

Jahon banki va Global Infrastructure Hub tomonidan DXSh infratuzilma rivojlanishida xususiy sektor investitsiyalarini jalb etishning samarali vositasi sifatida baholanadi. Ular DXSh loyihalarining moliyaviy barqarorlik, xizmatlar sifati va innovatsion rivojlanish nuqtai nazaridan ustunliklarini ilmiy asosda yoritib beradi hamda turli mamlakatlardagi huquqiy va amaliy tajribalar bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etadi.

DXSh rivojlanishining xalqaro tajribasini tahlil qilish maqsadida ushbu tadqiqotda Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya misol sifatida tanlab olindi. Mazkur davlatlar DXSh mexanizmlaridan samarali foydalanib, jamoat infratuzilmasiga katta hajmdagi xususiy investitsiyalarni jalb etishga erishgan.

Buyuk Britaniya DXSh modelini rivojlantirishda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Margaret Tetcher hukumati davridan boshlab davlat boshqaruvi tizimida transformatsion islohotlar amalga oshirilib, xususiy moliyaviy tashabbus (Private Finance Initiative – PFI) modeli joriy etildi. Ushbu model orqali davlat infratuzilma loyihalariga xususiy kapitalni faol jalb etishga erishildi, davlat xarajatlari optimallashtirildi va investitsion faollik oshirildi. Britaniya tajribasining asosiy xususiyatlari – aniq huquqiy asoslarning mavjudligi, loyihalar samaradorligini Value for Money (VfM) mezonini asosida baholash hamda xususiy sektor bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish amaliyotidir.

Shu bilan birga, dastlabki bosqichlarda ayrim kamchiliklar ham kuzatildi. Xususan, shartnomalarning murakkabligi, ayrim hollarda xususiy investorlar uchun haddan tashqari qulay shartlarning yaratilishi hamda shaffoflik bilan bog'liq muammolar tanqid qilindi.

Fransiya esa DXShning konsessiya modelidan keng foydalanadi. Ushbu mamlakatda davlat tomonidan tartibga solinadigan iqtisodiy tizim sharoitida jamoat infratuzilmasini rivojlantirishda xususiy sektorni jalb qilish uzoq tarixga ega. Fransiyada DXSh, ayniqsa, transport infratuzilmasi (avtomobil yo'llari, temir yo'llar), kommunal xizmatlar (suv va energiya ta'minoti) hamda ijtimoiy infratuzilma (sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalari) sohalarida keng rivojlangan. Ushbu tajribaning muhim jihati – davlat tomonidan shartnomalarning qat'iy nazorat qilinishi hamda risklarni xususiy sektor bilan aniq mexanizmlar asosida taqsimlashdir.

Rossiyada DXSh mexanizmlarining rivojlanishi nisbatan kech boshlangan bo'lsa-da, u tarixiy ildizlarga ega. DXShning dastlabki shakllari XIX asrda, imperatorlik Rossiyasi davrida vujudga kelgan. 1917-yilgi inqilobdan so'ng ushbu model to'liq bekor qilindi, biroq 1990-yillardan boshlab yana tiklana boshladi. Rossiyada DXSh rivojlanishining asosiy bosqichlari quyidagicha:

1. XIX asr – 1917-yil: konsessiyalar asosida temir yo'l va energetika sohalarida hamkorlik shakllangan;
2. 1920–1930-yillar: davlatning iqtisodiyotdagi mutlaq ustunligi tufayli DXSh amaliyoti to'liq yo'qolgan;
3. 1990-yillar: bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xususiy sektorning qayta shakllanishi va infratuzilma loyihalarini davlat buyurtmalari hamda subsidiyalar asosida moliyalashtirish boshlangan;
4. 2005-yil: “Konsessiyalar to'g'risida”gi Federal qonun №115-FZ qabul qilinib, DXSh huquqiy asosga ega bo'lgan;
5. 2015-yil: “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi Federal qonun №224-FZ qabul qilinib, DXShning zamonaviy huquqiy mexanizmlari shakllantirilgan.

Rossiya tajribasida DXShning ayrim muammolari ham kuzatiladi. Jumladan, yirik loyihalarning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi (20 ta eng yirik loyiha umumiy moliyaviy hajmning 60–80 foizini tashkil etadi), hududlar kesimida notekis taqsimot, investitsiyalarning asosan transport infratuzilmasiga yo'naltirilganligi (taxminan 60 foiz), ijtimoiy loyihalarga esa nisbatan kam (8 foiz atrofida) mablag' ajratilishi shular jumlasidandir.

O'zbekistonda DXSh loyihalari so'nggi yillarda sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. 2024-yil 10-dekabr holatiga ko'ra, mamlakatda 1 145 ta DXSh loyihasi amalga oshirilmoqda bo'lib, ularning umumiy investitsiya hajmi 29,6 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

Xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish jarayonida, avvalo, huquqiy va institutsional muhitni takomillashtirish zarur. DXSh loyihalarining muvaffaqiyati uchun barqaror va shaffof huquqiy asos muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, DXSh to'g'risidagi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va uni amaliyotda samarali qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, loyihalarni tanlash va ustuvorliklarni belgilashda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlariga asoslanish lozim. Moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish, xususiy sektor uchun rag'batlantiruvchi omillarni (soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari) joriy etish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin. Shu bilan birga, risklarni boshqarish tizimini joriy etish, ularni aniqlash va shartnomalarda aniq taqsimlash DXSh loyihalarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kadrlar salohiyatini oshirish ham ustuvor yo'nalishlardan biridir. DXSh loyihalarini samarali amalga oshirish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur bo'lib, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash maqsadida tizimli treninglar va seminarlar tashkil etilishi lozim.

Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitiga xos muhim jihatlardan biri – mahalliy sharoit va ehtiyojlarni hisobga olish zaruratidir. DXSh loyihalari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari va aholi ehtiyojlariga mos ravishda rejalashtirilishi ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, loyihalarning ijtimoiy ta'sirini baholash va salbiy oqibatlarni minimallashtirish choralarini ko'rish muhimdir.

Shuningdek, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash DXSh siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. DXSh loyihalariga mahalliy tadbirkorlarni jalb etish orqali ularning rivojlanishini rag'batlantirish va milliy iqtisodiy o'sishga qo'shimcha turtki berish mumkin.

XULOSA

Umumlashtirib aytganda, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tizimi – bu davlat tomonidan belgilangan shartlar va ko'rsatmalar asosida xizmat ko'rsatuvchi xususiy sektor bilan tuziladigan uzoq muddatli shartnomaviy hamkorlik shakli bo'lib, unda xususiy sektor o'zining moliyaviy, texnik va boshqaruv resurslari orqali loyihalarni amalga oshirish va rivojlantirishda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim instrumenti sifatida e'tirof etilib, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ham DXSh loyihalarini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shu nuqtai nazardan, DXSh mexanizmi istiqbolda mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim strategik vosita bo'lib qoladi.

Mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik modeli infratuzilmani rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida kompleks tahlil qilindi. Jahon tajribasi DXSh modelining infratuzilma sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb etish hamda davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

DXSh loyihalari davlat va xususiy sektor uchun quyidagi ustunliklarni taqdim etadi:

- *Moliyaviy barqarorlik* – xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish orqali davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytiradi;
- *Xizmatlar sifatining oshishi* – xususiy sektorning samaradorligi va raqobatbardoshligi hisobiga xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilanadi;
- *Innovatsion rivojlanish* – ilg'or texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- *Risklarni taqsimlash* – loyiha bilan bog'liq risklar davlat va xususiy sektor o'rtasida oqilona taqsimlanadi, bu esa umumiy barqarorlikni ta'minlaydi.

DXSh modeli turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli tatbiq etilgan bo'lib, ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Garchi DXSh tizimi mamlakatimizda huquqiy va institutsional jihatdan shakllanib borayotgan bo'lsa-da, uning mavjud salohiyati hali to'liq ro'yobga chiqarilmagan. Shu bois, DXShni yanada rivojlantirish maqsadida milliy strategiyani ishlab chiqish, ijtimoiy infratuzilma sohasiga investitsiyalarni kengaytirish, iqtisodiy samaradorlikni baholash tizimlarini (jumladan, Value for Money – VfM) joriy etish hamda xususiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish zarur.

DXSh modelini samarali rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- *Huquqiy bazani mustahkamlash* – DXSh sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish va soddalashtirilgan tartib-taomillarni joriy etish;
- *Xususiy sektorni rag'batlantirish* – investorlar uchun soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni kengaytirish;
- *Risklarni oqilona taqsimlash* – davlat va xususiy sektor o'rtasida risklarni muvozanatli taqsimlash mexanizmlarini joriy etish;
- *Shaffoflikni ta'minlash* – DXSh loyihalari bo'yicha tender jarayonlari va shartnomaviy munosabatlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash.

O'zbekistonda DXSh loyihalarini samarali rivojlantirish hamda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish doirasida quyidagi ustuvor yo'nalishlar alohida ahamiyatga ega. Avvalo, mavjud huquqiy va institutsional bazani xalqaro standartlarga moslashtirish, shartnomaviy munosabatlarning aniqligi va barqarorligini ta'minlash, investorlar uchun shaffof va prognoz qilinadigan huquqiy muhitni shakllantirish zarur.

Shu bilan birga, Buyuk Britaniya va Fransiya tajribasidan kelib chiqib, DXSh shartnomalarining muddati, risk taqsimoti hamda tomonlarning majburiyatlarini aniq belgilovchi huquqiy normalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish doirasida soliq imtiyozlari va davlat kafolatlarini joriy etish, DXSh loyihalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus davlat jamg'armasini tashkil etish, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari sifatida DXSh loyihalarining O'zbekiston iqtisodiy o'sishiga qo'shayotgan hissasini kompleks baholash, investitsiyalar samaradorligini Value for Money (VfM) mezonida tahlil qilish hamda DXSh mexanizmlarining davlat budjeti yukini kamaytirishdagi rolini chuqur o'rganish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yoldashev Z. va boshq. *Milliy va jahon iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma.* – 2014. – 352 b.
2. Nazarova G. va boshq. *Biznes strategiyasi: o'quv qo'llanma.* – T.: “Tafakkur-Bo'stoni”, 2011. – 152 b.
3. Nazarova G. va boshq. *Xalqaro iqtisodiy integrasiya: darslik.* – T.: Tafakkur Bo'stoni, 2011.
4. Avagyan G., Vardany K. (2023). *Պետություն-մասնավոր գործընկերությունը որպես կնթախառնուղիաճրճերի գորգացման խթան / Infratuzilmani rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik. Iqtisodiyot va jamiyat.* https://doi.org/10.52174/29538114_2023.1-21
5. Wegrzyn J., Wojewnik-Filipkowska A. (2022). *Manfaatdor tomonlar tahlili va ularning PPP muvaffaqiyatiga munosabati. Barqarorlik.* <https://doi.org/10.3390/su14031570>
6. Spitsyna T. (2022). *Ijtimoiy infratuzilmani moliyalashda davlat-xususiy hamkorlik mexanizmining samarali. Markaziy Rossiya ijtimoiy fanlar jurnali.* <https://doi.org/10.22394/2071-2367-2022-17-4-104-122>
7. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. *Davlat-xususiy sheriklik sohasiga oid rasmiy material.* <https://gov.uz/oz/imv/news/view/32854>

ILMIY TAQRIZ

Taqdim etilgan maqola davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelining infratuzilmani rivojlantirishdagi oʻrni va uning samaradorligini oshirish masalalariga bagʻishlangan boʻlib, yuqori darajadagi dolzarblilik, ilmiy asoslanganlik va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot Oʻzbekiston sharoitida DXSh mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortib borayotgan hozirgi bosqichda amalga oshirilgani bilan alohida eʼtiborga loyiqdir.

Maqolaning dolzarbligi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, infratuzilma loyihalarini samarali moliyalashtirish va xususiy investitsiyalarni jalb etish zarurati bilan bevosita bogʻliq. Muallif tomonidan DXSh modelining xalqaro tajriba asosida tahlil qilinishi, xususan Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya misolida qiyosiy yondashuv qoʻllanilgani ilmiy asoslanganlikni taʼminlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot Jahon banki, OECD hamda Global Infrastructure Hub kabi nufuzli xalqaro institutlarning yondashuvlari bilan uygʻun holda olib borilgani maqolaning nazariy va metodologik bazasini yanada mustahkamlaydi.

Ilmiy yangilik nuqtai nazaridan maqola DXSh mexanizmlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilib, ularni milliy sharoitga moslashtirish boʻyicha tizimli takliflar ishlab chiqqanligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, institutsional muhitni mustahkamlash, huquqiy bazani takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini joriy etish hamda Value for Money (VfM) mezonlarini qoʻllash zarurati ilmiy asosda yoritilgan. Bundan tashqari, muallif tomonidan hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda DXSh loyihalarini rejalashtirish, ijtimoiy taʼsiri baholash va mahalliy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash zarurati asoslab berilgani tadqiqotning amaliy yangiligini oshiradi.

Maqolaning amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan taklif va tavsiyalarning davlat siyosatini shakllantirish hamda investitsion muhitni yaxshilashda qoʻllanish imkoniyati bilan belgilanadi. Xususan, DXSh loyihalarini moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish, maxsus davlat jamgʻarmalarini tashkil etish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari orqali xususiy sektorni ragʻbatlantirishga qaratilgan takliflar amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy tahlil usuliga asoslangan boʻlib, tanlangan mamlakatlar tajribasi asosida mantiqiy va izchil xulosalar chiqarilgan. Shu bilan birga, metodologik apparatni kengaytirish, jumladan, ekonometrik modellar, statistik tahlil usullari yoki empirik maʼlumotlar bazasidan foydalanish orqali natijalarning ishonchligini yanada oshirish mumkin edi.

Maqolaning kuchli tomonlari sifatida uning mantiqiy tuzilishi, ilmiy uslubga mosligi, keng qamrovli adabiyotlar bazasiga tayanilgani hamda xalqaro tajribaning tizimli tahlil qilingani alohida taʼkidlanadi. Ayniqsa, muallif tomonidan nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda amaliy tavsiyalarning uygʻunlashtirilgani maqolaning qiymatini oshiradi. Shu bilan birga, ayrim umumlashtirilgan xulosalarning ustunligi, empirik dalillar va aniq statistik hisob-kitoblarning yetarli darajada keltirilmaganligi maqolaning nisbatan zaif jihatlari sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqola ilmiy va amaliy jihatdan muhim boʻlib, davlat-xususiy sheriklik sohasidagi tadqiqotlar rivojiga sezilarli hissa qoʻshadi. Ayrim metodologik va empirik jihatlarni yanada chuqurlashtirish orqali uning ilmiy darajasini oshirish mumkin. Shunga qaramay, maqola yuqori sifat talablariga javob beradi va ilmiy jurnalda chop etish uchun tavsiya etiladi.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Fundamental Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.